

AN'ANAVIY XONANDALIKNI O'QITISHDA PEDAGOGIK KOMPETENSIYA VA USTOZ-SHOGIRD AN'ANASINING ZAMONAVIY TA'LIMDAGI ROLI.

Nurmuhammadov Sardor Alijon o'g'li

Guliston Davlat Universiteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Akbarova Moxigul Gulomovna

Guliston Davlat Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada an'anaviy xonandalik yo'nalishida ta'lim berishning murakkab jarayonlari, ustoz-shogird an'alarining o'рни, pedagogik kompetensiya tushunchasi hamda uning shakllanish bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, maqom san'atining o'rgatish usullari, nazariy va amaliy jihatlar, milliy qadriyatlar asosidagi ta'lim mazmuni tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'limda kompetent mutaxassis tayyorlash masalasi asosiy e'tiborda turadi.

Kalit so'zlar: an'anaviy xonandalik, ustoz-shogird an'asi, pedagogik kompetensiya, maqom san'ati, ta'lim tizimi, kasbiy tayyorgarlik, milliy qadriyatlar, ijro an'analari, musiqa merosi zamonaviy yondashuv

Annotation: This article explores the complex processes of teaching in the field of traditional singing, the importance of the ustoz-shogird (master-apprentice) tradition, and the concept of pedagogical competence along with its developmental stages. It also analyzes methods of teaching maqom art, its theoretical and practical aspects, and the educational content based on national values. The focus is placed on training competent specialists in modern education.

Keywords: traditional singing, ustoz-shogird tradition, pedagogical competence, maqom art, education system, professional training, national values, performance traditions, musical heritage, modern approach.

Manan yetuk yosh avlodimiz ertangi kuni yuksak ma'naviyatini salmoqli darajada boyituvchi pedagog-o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va salohiyatlari yanada zamonga

xos va mos holda ijtimoiy-gumanitar fanlar uyg'unligida olib bormog'i maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bu borada birgalikdagi harakat yoshlarimizning barkamol inson bo'lib voyaga yetishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil davlatda ta'lim tizimini shakllantirish va rivojlantirish, millatning taqdiri va istiqbolini ta'minlash kabi jiddiy muammolarni hal qilishning ilmiy asoslari va amaliy yo'llarini yaratishda buyuk ajdodlarimizning ibratli ishlari, ta'limotlarini hayotimizga tadbiq etish taqozo etiladi. Asriy qadriyatlar negizida qaror topgan boy musiqa merosimizning o'rganish masalalari yangi bosqichga ko'tarilmoqda. O'zbek xalq og'zaki an'anasidagi kasbiy san'at asarlarining xalq e'zoziga tushishi, maqom ashulalarining, katta ashulalarining va maqom yo'llaridagi mumtoz asarlarining ijrochilik taomilidan munosib o'rin egallashi bu jarayonga o'zgacha salohiyat baxsh etdi. Bugungi kunda ularni tadqiq etish, pedagogik ta'lim tizimida ularning o'rganilishini o'tmish va bugungi kun misolida tahlil qilish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Shunnigdek, har qanday san'at turi har xil vositalar orqali hayotiy voqelikni aks ettirishga qodir ekan, so'nggi yuz yillik mobaynida O'zbekiston musiqasining rivojlanishi nechog'lik murakkab va o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarda kechganini yaqqol tasavvur qilish va uni tadqiq etish ustivor ahamiyat kasb etib bormoqda. Ma'lumki maqom ta'limotini o'rganish mazkur muhtasham san'at paydo bo'lishidan boshlab vujudga kelgan. Qolaversa maqom san'atini o'rgatilishi, ta'lim shakllari uzoq o'tmishdan shakllanib bugungi kunga qadar taraqqiy etib kelmoqda. An'anaviy xonandalik yo'nalishida bilim berish boshqa sohalarga nisbatan anchayin murakkab va uzoq vaqt talab etadi. Ushbu soha ustoz - shogird an'analari hamda asriy davom etayotgan ijro an'alariga taqlidni ham talab qiladi. Umuman olganda ta'lim berish jarayoni hech qachon onson kechmagan ham. Bugungi kun zamonaviy yondashuvda kompetensiya tushunchasi keng tarqalib har bir sohaning o'z kompetentligi mavjud. Hususan pedagogika sohasida ham pedagogic kompetensiya tushunchasi shakllanib bo'lgan. Har bir sohada bo'lgani kabi san'atning har javhasida hususan oliy ta'lim tizimida San'atshunoslik sohasida Vokal san'ati. An'anaviy honandalik yo'nalishi bo'lajak mutahasislarining umummilliy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun mustqali izlanuvchi sifatida pedagogic tehnologiyalarni ishlab chiqish izlanishlaridaman. Aslida kompetensiya nima? Uni shakllantiruvchi omillarga

nimalar kiradi? Qanday hollarda kompetentlik yaqqol namoyon bo'ladi? Kompetensiyani rivojlanish bosqichlari qandav va uni qanday amalga oshirish kerak degan savollarga Vokal san'ati. An'anaviy honandalik yo'nalishi misolida yechim qidiramiz. Kompetentlik ko'pincha shaxsning ajralmas sifati sifatida tushuniladi, u o'rganish va ijtimoiylashuv jarayonida olingan bilim, ko'nikma va tajribaga asoslangan faoliyatga umumiy qobiliyat va tayyorlikda namoyon bo'ladi va mustaqil va muvaffaqiyatli faoliyatga yo'naltirilgan. Kompetentsiya - o'qituvchining o'quv tayyorgarligi normasi (talablari) bo'lib, u muayyan sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkonini beradi. O'qituvchi kompetensiyasi uch qismdan iborat: umumiy madaniy, kasbiy va ijtimoiy kompetentsiyalar. Kompetentsiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi hamkorlikdir. Bu talabalar va o'qituvchilarning birgalikdagi rivojlanish faoliyatining insonparvarlik g'oyasi bo'lib, o'zaro tushunish, ma'naviy dunyoga kirish, faoliyatning borishi va natijalarini jamoaviy tahlil qilish bilan muhrlangan. An'anaviy xonandalik yo'nalishida ta'lim berar ekanmiz avvalo pedagogik kompetensiya jarayonida Ustoz-shogird an'analarini alohida aytib o'tish va aynan ushbu so'zga katta urg'u berish lozim. Shu o'rinda aytib o'tish shartki bugun Yurtimizda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida "Ustoz-shogird" an'analarini tarkib toptirish va rivojlantirishga qadriyatli tus berildi. Masalan, har bir ta'lim muassasasining pedagog xodimlariga tahsil oluvchi o'quvchilar "Ustoz - shogird" an'analari asosida biriktirib chiqildi. Bu ayniqsa mumtoz xonandalik, maqom ijrochiligi yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun ayni muddao bo'lmoqda. Boshqa sohalardan farqli o'laroq An'anaviy honandalik yo'nalishi umummilliy urf-odatlar, an'analar, nasriy qadriyatlar, milliy madaniy merosimizning amalda mavjud durdonalari asosida tarbiyalanadi. Avvalo ushbu soha vakillari musiqiy merosimizning amaliy jihatlarini va shu bilan birga nazariy jihatlarini ustozlaridan eshitish, tushunish va o'zlarida amaliy tahlil qilish jarayoni orqali pedagogik ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Biz san'atning qaysi bir sohasi bo'lmasin umumiy jihatni avval aniqlaymiz va shu jihatlarni talabaga singdiramiz. Biz maqola boshida pedagogik kompetensiya tushunchasiga urg'u berayapmiz va ustoz-shogirt tushunchasini uning yoniga qo'yayapmiz. Nima uchun? Sabab shuki kompetensiya tushunchasi zahirida Zamonaviy ta'lim o'z-o'zidan kompetensiya nuqtai nazaridan

yondoshuv masalasini zaruriy qilib qo‘ymoqda. Bu albatta, kasb jihatdan kompetentligi bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlashni talab qiladi. Ta’limning asosiy maqsadi talabada ijtimoiy zarur sifatlarni va kompetensiyani, shaxs sifatida o‘zligini anglash, o‘z bilimlarini doimiy oshirib borish, o‘zini boshqarib borish va faollashib borishi zarur, chunki pedagog ixtisosligi bo‘yicha ta’lim va tarbiya ishlari yuzasidan jamiyat oldida mas’uldir. U muntazam ravishda kasbiy tayyorgarligini takomillashtirib borish bilan birgalikda o‘qituvchi, muallim, ustoz, tarbiyachi, pedagog huquqiga ega bo‘lishi, aniqrog‘i, kasbiy kompetensiya egasi bo‘lishi lozim. Endilikda o‘qituvchi uchun o‘zi tanlagan kasb, fan, mutaxassislik borasidagi amaliy va nazariy bilimlarni puxta egallash kamlik qilib qoldi. U har qanday vaziyatda ta’lim-tarbiyani yangi-yangi usul va metodlarini o‘z faoliyatida qo‘llay olishi, bir so‘z bilan aytganda, kompetensiya egasi bo‘lishi lozim.¹ Ustoz-shogird an‘analari eng qadimgi davrlardan mavjud bo‘lib, ularni mazmunmohiyati yillar o‘tishi, jamiyat ijtimoiy formatsiyalarining o‘zgarishi asosida o‘zgarib davr talablariga moslashtirib boriladi. Bugungi kunda ustozlar an‘anasini davom ettirishib, qator yosh san‘atkorlar muvaffaqiyatli ijod qilmoqdalar. Ular ustozlar maktabiga suyangan holda o‘zlariga xos ijro yo‘llari va uslublari bilan qo‘shiqchilik xazinasiga sezilarli xissa qo‘shmoqdalar. Ustoz-shogird an‘analari deganda bir necha yillar emas, necha ming yillar, asrlar haqida fikr qilish lozim ya’ni milliy musiqa merosimizning ilk shakllardan ondan bugungi kunga qadar izlanish olib borgan olimlar, musiqashunoslar, asriy xofizlar va ularning og‘izdan og‘izga o‘tib kelgan ijrochilik an‘analari xususida so‘z boradi. An‘anaviy qo‘shiq ijrochiligi tarixiga nazar tashlasak, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o‘lkamizda bu muqaddas san‘atning butun bir ijrochi avlodi yetishib chiqqanligining guvohi bo‘lamiz. Ota Jalol Nosirov, Ota G‘iyos Abdulg‘ani, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonov, Sodirxon hofiz Bobosharifov, Zohidxon hofiz, Madali hofiz, Mulla To‘ychi Toshmuhammedov, Matyoqub Xarratov singari zabardast hofizlar shular jumlasidandir. Musiqa merosimiz ustuni “Shashmaqom” (Sayfuddin Urmaviy) ungacha bo‘lgan davrda “O‘n ikki maqom” (Buxoro musiqashunos olimlari) tizimi, “Xorazm tanbur chizig‘i” va undan ham ilgari saroy sozandalari hamda xofizlarining ijodi, xayot yo‘llari haqida chuqurroq anglashga harakat qilsak ularning bilim va malakalari, Olloh in‘om etgan

qobiliyatlari va ushbu qobiliyatni qanday shakllantirib, rivojlantirib borganliklari haqida anglash oson kechadi. Ushbu jarayonlarni o'rganish jarayoni hamda o'rgatish jarayoni pedagogik tajriba va ko'nikmalarni mustahkamlovchi omillardan sanaladi. Maqom an'analari hamda uning kuylanish yo'llarini o'qib o'rganar ekanmiz sof ovoz, jozibali, mukammal talqin, keng diapazon, shunga xos ko'lam va mahoratda o'z ifodasini topadi. Bunga erishish uchun esa saboq, ilm, bilim, sabot hamda uquv lozimdir. An'anaviy xonandalik bir qator uzluksiz rivojlanib boruvchi omillarga tayanadi: kuy, she'r matnini puxta o'rganish, ijro maqsadini imkon qadar to'la ochib berish, ovoz yo'nalishidagi omomentik qoidalarini aniq ifodalash ana shunday omillardandir. Milliy musiqiy bezaklar, ovozning o'zbekona tuslanishi va sadolanishini ta'minlash, ijro jarayonini to'laligicha va alohida-alohida holda uni o'rab turgan ijroviy-ijodiy, ilmiy-nazariy tomonlarini qiyosiy o'rganish san'atkorlar oldida turgan asosiy vazifalardan biri. Ijroni qiyosiy o'rganish, tahlil qilish, mohiyatini anglashda innovatsion vositalar, xususan ovozli yozuvlar va albatta ustozona jonli ijrolardan foydalanish talab etiladi. Ushbu jarayonlar negizida ham pedagogik mahorat yotadi aslida. Ko'rinishidan murakkab bo'lgan ushbu jarayonlar aslida tartibi, qonun qoidasi va boshlanish nuqtasini aniq olish va natija kutilganidan a'lo bo'ladi. Pedagogik kompetensiyalar ham shu jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi. Ta'lim-tarbiya inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovidir. Ta'lim tarbiya jarayonlari davlat nazoratidagi umummilliy masala hisoblanadi. Mamlakatimizda ta'lim, ya'ni o'qitishni tarbiya bilan uyg'unlikda olib boriladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim jarayonini tubdan yaxshilashni talab qilar ekan, kompetentli pedagoglarni tayyorlashda ham ana shu talablardan kelib chiqqan holda yondashilishi ko'zga tashlanadi. Kompetensiyalik yoki juda mahoratlilik, oliy malakali pedagoglarni tayyorlash zamonamizning eng dolzarb masalasiga, aytish joiz bo'lsa, davlat va jamiyatning eng asosiy vazifasiga aylangan. Bugungi kunda jamiyat uchun butunlay yangi qiyofadagi mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, yuksak kasbiy mahorat va intellektual, ilmiy salohiyatga ega bo'lgan yetuk mutaxassisga bo'lgan talab tobora oshib bormoqda. Umumiy olib qaraganda har bir javhada kasbiy kompetensiya masalasida dunyo pedagoglari tajribasini tatbiq qilish yoki an'anaviy o'zbek pedagogikasi me'yorlaridan kelib chiqqan holda kompetensiya mezonlarini

belgilashda fikrlar hilma-xil bo'lib, hali yechilmagan masalalar talaygina. Bu borada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga bu borada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga nazar tashlasak, turli soha va mutaxassisliklarga, fan taraqqiyotida, o'qitish usullari, texnologiyalariga juda ko'p e'tibor qaratilayotgani e'tiborga molik.

Adabiyotlar.

1. Rajabov I. Maqomlar. Toshkent. 2006 yil.
2. Akbarova , M. (2022). VOKAL SAN'ATI. AN'ANAVIY XONANDALIK YO'NALISHI BO'LAJAK MUTAHASISLARINING UMUMMILLIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNALOGIYALARI. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(6), 122–126.
3. AN'ANAVIY XONANDALIK YO'NALISHI BO'LAJAK MUTAHASISLARINING PEDAGOGIC KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH VA BU JARAYONDA DUCH KELINADIGAN MUAMMO VA YECHIMLAR MG Akbarova Oriental Art and Culture, 2023
4. AN'ANAVIY XONANDALIK YO'NALISHI BO'LAJAK MUTAHASISLARIGA BILIM BERISHDA PEDAGOGIK KOMPETENSIYALAR. MG Akbarova, BX Xodjakulov - Oriental Art and Culture, 2022